



INTENSIV BOG'DORCHILIKNING ASOSIY ILMIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

¹Egamberdiyev Po'latjon Ergashovich

²Xojaqulov Fayzi Mardonovich

³Jo'lbekov Ibrohim Salimqul o'g'li

⁴Maxmudov Islom Rustam o'g'li

⁵Qabulov Ibroxim Mamatqul o'g'li

Guliston davlat universiteti

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2023

Accepted: 15th June 2023

Online: 16th June 2023

KEY WORDS

*Intensive, innovatsion
texnologiya, agrosanoat,
bog'dorchilik, resurs tejamkor,
eksport, issiqxona, fermer, spur,
vegetativ*

ABSTRACT

Mazkur maqolada yurtimizda intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar, ekin maydonlari va intensiv bog'dorchilikni tashkil etish texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi. Ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish uchun asosiy, eng muhim vazifalar to'g'risida fikr va mulohazalar yuritiladi hamda intensiv meva ekinlarini ko'chatini ko'paytirish uchun zaruriy amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'rib chiqiladi. Hozirgi kunda soha bo'yicha malakali mutaxassislariga bo'lgan talab va ushbu talabni qondirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 03 mart sanasida qabul qilingan "O'zbekiston respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4246-sonli qarori ijrosini ta'minlash bog'dorchilik tarmog'i va issiqxona xo'jaliklarida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning

samarali mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish uzumning texnik navlarini seleksiyani rivojlantirish, navli uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar turlarini kengaytirish masalalarini hal etishni taqozo etadi[1].

Ushbu qarorda keltirib o'tilgan 9-topshiriq a va b bandlari yaqqol respublikamizda intensiv meva ekinlarini rivojlantirish bo'yicha amalda bajarilayotgan yuqori agrotexnik tadbirlar deb qarasa bo'ladi: xususan, a) 2019-yil 1-avgustga qadar mavjud mevali bog'lar va issiqxona xo'jaliklarini har bir fermer xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonasi kesimida yaroqsiz va iqtisodiy jihatdan samarasiz bog'lar va issiqxona xo'jaliklarini aniqlash nuqtai nazaridan xatlovdan o'tkazsin va iqtisodiy samarador yangi bog'lar va issiqxona xo'jaliklarini barpo etish bo'yicha takliflar kiritsin;

b) 2019-yil 1-sentabrga qadar:

keyinchalik meva mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga tavsiyalar berib borish maqsadida mevali ko'chatlarning yuqori hosilli navlarini tanlab olish va ularni



yetishtirishning hududiy chegaralarini aniqlash nuqtai nazaridan tabiiy-qishloq xo'jaligi bo'yicha rayonlashtirishni amalga oshirsin; ishlab chiqaruvchi, yer uchastkasi, bog'larning holati, navlar, barpo qilingan vaqti va boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan bog' plantatsiyalari va issiqxona xo'jaliklarining yagona elektron reyestrini shakllantirsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 14 aprel kuni qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda mamlakatimizda ichki talabni to'liq ta'minlash bilan birga

eksportni oshirish uchun ham katta imkoniyatlar borligi, so'nggi uch yilda sohada manfaatdorlikni oshirish, oddiy qilib aytganda, dehqon va fermerni boy qilish uchun barcha masalalar hal qilib berilishi, endi mutasaddi rahbarlaru mirishkorlar ham hosil va daromadni ko'paytirish uchun yangicha ishlashi zarurligini aytib o'tdi. Yig'ilishda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 55 ta tuman, 86 ta klaster va 125 ta kooperativ bu borada yetakchi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Bog' va tokzorlarda qator oralari, takroriy maydonlarning har bir qarichidan samarali foydalanib, 2-3 marta hosil olishni yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi. [2].

Respublikada meva yetishtirishni ko'paytirishda mevachilikni intensivlashtirishni yangi zamonaviy usullarini qo'llash, mevachilikni chuqur o'zlashtirish, ishlab chiqarishni integratsiya qilish, mavjud bog'larni xosildorligini oshirish, kam xosilli bog'larni o'rniga yangi zamonaviy ko'p xosilli bog'lar barpo qilish, tog' va tog' oldi zonalaridan unumli foydalanish, sug'orish va o'g'itlash usullaridan to'liq va unumli foydalanishdan iborat. Meva bog'larini maydonini kengaytirish asosan mevachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlarida barpo etiladi. Respublika bo'yicha meva mahsulotlari yetishtirib beruvchi mintaqalarga quyidagilar kiradi: Andijon, Toshkent, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari. Binobarin, Andijon viloyatida yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish miqdori 492.5 ming tonnani, Toshkent viloyatida 262.0 ming tonna, Qashqadaryo viloyatida 164.1 ming tonna va Samarqand viloyatida 377.2 ming tonnani tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mevachilik tarmog'i oldiga ichki bozorni ta'minlash va xorijga eksport qilish salohiyatini kuchaytirish uchun mevachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish vazifasi qo'yilgan.

Mazkur xalq-xo'jalik ahamiyatiga ega muhim vazifani quyidagi yo'llar bilan hal etish mumkin:

-ishlab chiqarishga yuqori hosildor, mevalariinng sifati yuqori, yer uch ustki qismining o'lchami cheklangan, hosilga erta kiruvchi, har yili barqaror mo'l hosil beruvchi yangi navlarni tatbiq etish;

-“Spur” tipidagi navlardan foydalanish(tabiiy pakana);

-vegetativ ko'payuvchi payvantaglardan - juda pakana, pakana, yarim pakana va o'rta o'suvchilardan foydalanish;

-maydon birligidagi o'simliklar zichligini gektariga 100-110 ming donagacha yetkazishga imkon beruvchi “O'tloqsimon bog” tipidagi meva yetishtirish texnologiyasidan foydalanish;

-shox-shabbasi sun'iy tipda shakllantirilgan daraxtlarni zichlashtirilgan-chiziqli joylashtirish;



-juda yosh vaqtda daraxtlarning kuchli kesilishiga yo'l qo'ymaydigan shakl berish texnologiyasini qo'llash;

-texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashtirishga asoslangan zamonaviy industrial texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Intensiv bog'dorchilikda meva ko'chatlarini urug'idan ko'paytirish – eng qulay va oson usul. yetishtirishning mazkur usulida o'simliklar odatda juda yaxshi o'sadi, tashqi muhit sharoitlariga moslashadi, jadal ildiz tizimiini shakllantiradi, shuningdek yuqori inaktivatsiya xususiyatiga (viruslarga chidamlilik) ega hisoblanadi. Mevali o'simliklarni ko'paytirishning mazkur usuli afzalliklari bilan bir qatorda, o'zining jiddik kamchilari ham bor.

Xususan bunday yo'l bilan olingan o'simliklar genetik jihatdan turli-tumanligi bilan farqlanadi.

Mevachilikda urug'idan ko'paytirish quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- 1) Seleksion ishlarda yangi nav yaratishda.
- 2) Payvandtag yetishtirish uchun.

Vegetativ ko'paytirish – ona zot vegetativ a'zosi alohida qismidan o'simlikni takror ishlab chiqarish jarayoni. Mazkur jarayonda ona o'simlikning somatik hujayralari, to'qimalari va a'zolari ishtirok etadi. SHu bois navning vegetativ avlodi – klon – ona o'simlik bilan genetik bir xil va unda barcha xo'jalik foydali belgilar va sifatlar siqlanib qoladi. Bundan tashqari, bunday yo'l bilan olingan o'simliklar hosilga erta kiradi. Vegetativ ko'paytirishning amchiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin: virusli infeksiyaning avlodga yuqishi mumkinligi, ildiz tizimining kuchsiz rivojlanishi va sayozroq joylashishi, o'simliklarning kamroq yashashi. Tabiiy o'sish sharoitlarida vegetiv ko'payishga moyillik urug'i bilan ko'payish bilan birgalikda fitotsenozda turning barqarorligini, uning raqobatbardoshligini va regeneratsion barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Aksariyat mevali va rezavor mevali o'simliklar vegetativ ko'payishga qodir bo'lib, u xilma-xil shakllarda ifodalanishi mumkin. Vegetativ ko'paytirishning asosi regeneratsiya – o'simlikning yo'qotilgan a'zo va to'qimalarini tiklay olishi hisoblanadi. Reparatsiya – ya'ni, butun organizmning uning bitta qismidan tiklanishiga olib keluvchi jarayon regeneratsiyaning mevachilikda keng tarqalgan xususiy holati hisoblanadi.

Mevali o'simliklar ko'payish usuliga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. O'simlikning tabiiy xususiyatlari asida ko'payish.
2. Sun'iy yo'l bilan ko'payish. O'simliklarning tabiiy usulda ko'payishi quyidagilarga bo'linadi: ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan qismlari bilan ko'payish, mo'ylovchalari bilan ko'payish. O'simliklarning ixtisoslashmagan qimlari bilan ko'payishi – tabiiy sharoitlarda ona o'simlikning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiluvchi qismlari, ildiz bachkilari va partikulyatsiyadir.
3. Vegetativ ko'payishning sun'iy usuli – asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi: qalamchasidan ko'paytirish – yog'ochlashgan qalamchalar bilan; yashil qalamchalar bilan; ildiz qalamchalari bilan. Parxishlab ko'paytirish.

Yog'ochlashgan va yashil qalamchalar bilan qorag'atning qizil va qora mevali turlari, krijovnik, klyukva, anor, anjir, behi, zaytun va tog'olcha hamda olxo'ring ayrim navlari ko'paytiriladi. Ildiz hosil bo'lishini rag'batlantiruvchi o'stiruvchi moddalardan foydalanish ushbu ishlarni ancha yengillashtiradi. Ildizlar bir yillik shoxchalarning bo'g'inlarida, xususan



uning pastki qismida hosil bo'ladi. YAshil qalamchalarning ildiz otishi yog'ochlashgan qalamchalarga nisbatan oson kechadi, shu bois ushbu usul ko'pgina qiyin ildiz otuvchi tur va navlarni (olma, nok, olcha, shaftoli, olxo'ri, gilos) muvaffaqiyat bilan ko'paytirish imkonini beradi. YAshil qalamchalar yog'ochlashmagan novdalardan bir-uch bo'g'inli qilib kesib olinadi, ularda barglar qisman yoki to'liq saqlanadi. Qalamchalarning pastki qismiga ildiz hosil bo'lishini rag'batlantiruvchi o'stiruvchi moddalar bilan ishlov beriladi va sun'iy tuman sharoitlarida parniklarda, plyonkali issiqxonalarda bo'sh substratlarda ildiz ottiriladi.

4. Vegetativ ko'paytirish. Hozirgi kunda o'simliklarni aseptik sharoitlarda sun'iy ozuqa muhitlarida mikroko'paytirish deb ataluvchi usulda ko'paytirish tartiblarini ishlab chiqishga juda ham katta e'tibor berilmoqda. O'simliklarning izolyatsiyalangan a'zolari, to'qimalari va hujayralari o'sishni boshqaruvchi moddalar va sitokinin guruhiga mansub moddalar mavjud bo'lgan ozuqa muhitli kolbalarda yoki probirkalarda ko'paytiriladi va o'stiriladi.

Ushbu usulning afzalliklari quyidagilar: ko'paytirish koeffitsiyentining yuqoriligi (1:1000), o'simliklarni har yilgi testdan o'tkazmasdan turib virussiz ekish materiallari olish mumkinligi, o'simliklarning kolbalarda ikki yil mobaynida saqlanib tura olishi

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 03 mart sanasida qabul qilingan "O'zbekiston respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4246-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 14 aprel kuni qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi.
3. Ostanaqulov, T. "Mevachilik asoslari" o'quv qo'llanma, "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, Toshkent -2011
4. D.S.Normurodov, Sh.Abrorov, Sh.N.Rajametov, B.X.Xalmirzayev, S.T.Sanayev, I.Normuratov, B.S.Mamatov. "Intensiv mevachilik" fanidan darslik. SAMARQAND-2021
5. Adhamov, A., Ungarov, A., & Jo'lbekov, I. (2023). PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(4), 13-15.
6. Ungarov A. INNOVATIVE METHODS OF FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 107-109.
7. Jo'lbekov, Ibrohim, et al. "UZUMNING SANOATBOP NAVLARINI YETISHRISH USULLARIGA DOIR MAVZULARNI INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH." *Евразийский журнал технологий и инноваций* 1.6 (2023): 89-93.
8. Qurbanov E. et al. AGRAR SOHADA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI TAHLILI //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 143-146.
9. Рахматуллаев Р. К., Жўлбеков И. С., Адҳамов А. Р. МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЯ АЭРОДИНАМИЧЕСКОГО ПОЛЕТА СУШЕНОЙ ВИНОГРАДНОЙ ЯГОДЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 3 Part 2. – С. 147-151.
10. Эгамбердиев, П., Абдурайимов, Д., Жулбеков, И., & Нуралиева, Ф. (2022). УЗУМНИНГ ХЎРАКИ ОҚ ХУСАЙНИ НАВИНИ ВОИШ УСУЛИДА ЕТИШТИРГАНДА КУРТАК



ЮКЛАМАЛАРИНИ ҲОСИЛДОРЛИГИГА БОҒЛИҚЛИГИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(5), 902-905.

11. Эгамбердиев, П. Э., Хўжакулов, Ф. М., Махмудов, И. Р., & Абдураимов, Д. У. (2023). УЗУМНИНГ ХЎРАКИ НАВЛАРИ ХОМТОК ҚИЛИШНИНГ ҲОСИЛДОРЛИК КЎРСАТКИЧИ ВА ҲОСИЛ СИФАТИГА БОҒЛИҚЛИГИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(6), 13-18.

12. Otaboyev M., Qabulov I. "Bek cluster" korxonasida paxta tolasini saqlashda foydalanilayotgan zamonaviy qurilmalar tasnifi. Paxta xom ashyosini saqlashda namlikning tolasifatiga ta'sirini ilmiy asoslash //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 174-177.

13. To'xtamishev, Sayitkul Saydullaevich. "MEVA O 'SIMLIKLARINING INDIVIDUAL RIVOJLANISHI." *RESEARCH AND EDUCATION* 2.4 (2023): 51-56.

14. Otaboyev M., Maxamadov M. DALALARDAGI PAXTANI YIG 'IB TERIB OLISHGA TAYYORLASH VA TERIMNI TASHKIL ETISH TARTIB QOIDALARI //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 16-22.

15. Рахматов О. и др. Разработка трёхвалкового аппарата для пластификации вяленой дыни //Наука, техника и образование. – 2019. – №. 9 (62). – С. 41-43.